



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqqan boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025-yil 21-may, № 102 (8997)

Chorshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON — VENGRIYA: STRATEGIK SHERIKLIK VA KO'P QIRRALI HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'lib turibdi.



Prezident Shavkat Mirziyoyevning Budapeshtga rasmiy tashrifi 20-may kuni Vengriyaning yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan uchrashuvdan boshlandi.

Vengriyaning "OTP Bank", "BDPST Group", "4iG", "Indotek", "MVM", "Duna Group", "MOL Group", "H2O Consortium", "Inpark", "Wizz Air" va boshqa ko'plab kompaniyalarning top-menejerlari va ta'sischilari ishtirok etdi.

Davlatimiz rahbari o'z nutqida rasmiy tashrif Vengriya ishbiarmonlari bilan uchrashuvdan boshlanayotgani ramziy ma'noga ega ekanini ta'kidladi.

Vengriyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari jadal o'sib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Masalan, "OTP Bank" O'zbekistonning yirik banklaridan birini sotib olib, mamlakatimiz moliya bozorida barqaror o'rin egalladi.

Kompaniyaning avtokreditlashni rivojlantirish uchun qo'shma kompaniya tashkil etish, biznesni moliyalashtirish dasturini yo'lga qo'yish, yirik parrandachilik klasterini qurish bo'yicha yangi

rejalarini qo'llab-quvvatlandi.

Sanoat kooperatsiyasini kengaytirish va ilg'or texnologiyalar transferini rag'batlantirish maqsadida Toshkent viloyatida Yevropa kompaniyalari uchun maxsus sanoat zonasi tashkil etilmoqda. Ushbu hududni boshqarish Vengriyaning "Inpark" operatoriga berildi.

Iqtisodiy sheriklikni kengaytirish maqsadida O'zbekiston Prezidenti qator ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatib o'tdi. Qo'shma loyihalarni birgalikda moliyalashtirish va tayyor mahsulotlarni uchinchi mamlakatlarning istiqbolli bozorlariga eksport qilishni qo'llab-quvvatlash shular jumlasidan.

Transport jihatidan o'zaro bog'liqlikni kuchaytirish, xususan, yuk tashishni ko'paytirish va ikki mamlakat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni rivojlantirish muhimligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Vengriya kompaniyalarining qo'shma loyihalarni amalga oshirishga qiziqishini yuksak baholadi. O'z navbatida, biznes vakillari hamkorlikni kengaytirish bo'yicha taklif va rejalarini bildirdi.

Uchrashuvda transport va yo'l infratuzilmasini modernizatsiya

qilish, logistika markazlari va kommunal tarmoqlarni barpo etish, qurilish materiallari, tayyor to'qimachilik, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

So'zining yakunida davlatimiz rahbari bunday uchrashuvlarni muntazam o'tkazib borishni taklif etdi.

Biz mamlakatlarimiz ishbiarmon doiralari o'rtasidagi mustahkam aloqalarni rivojlantirish uchun barcha sharoitlarni yaratamiz, — dedi O'zbekiston Prezidenti.

Tadbir yakunida davlatimiz rahbari huzurida ustuvor investitsiya loyihalarni amalga oshirish bo'yicha bitimlar almashish marosimi bo'ldi.

Rasmiy tashrifning ishbiarmonlik dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "OTP Bank Group" direktorlar kengashi raisi Shandor Chani bilan uchrashuv o'tkazdi.

Bankning mamlakatimiz bank-moliya bozoridagi faoliyati hamkorlikni kengaytirish bo'yicha taklif va rejalarini bildirdi.

Uchrashuvda transport va yo'l infratuzilmasini modernizatsiya

avtokreditlashni rivojlantirish va biznes loyihalarini moliyalashtirishga doir qo'shma dasturlarni olqishladi.

Parrandachilik klasterini tashkil etish bo'yicha yirik loyihani tez fursatda amalga oshirish muhimligi qayd etildi.

Toshkent viloyatidagi sanoat parkida Vengriya kompaniyalari loyihalarni ilgari surish va qo'llab-quvvatlash ustuvor yo'nalish sifatida qayd etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Budapesht shahriga rasmiy tashrif doirasida Vengriya Milliy majlisi spikeri Laslo Kyover bilan uchrashuv o'tkazdi.

O'zbekiston — Vengriya strategik sheriklik munosabatlarini, shu jumladan, parlamentlararo yo'nalishda yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

Ikki mamlakat parlamentlari delegatsiyalarining o'zaro tashriflari va uchrashuvlari faollashgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida bo'lib o'tgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasida Milliy majlis spikeri o'rinbosari Yanosh Latursai ishtirok etdi.

Yil yakuniga qadar Vengriya

parlamenti spikeri o'rinbosari va Iqtisodiyot qo'mitasi rahbarining O'zbekistonga, mamlakatimiz parlament delegatsiyasining Budapesht shahriga tashrif amalga oshiriladi.

Imzolangan bitimlarni amalga oshirishga ko'maklashish, do'stlik guruhlari ishini faollashtirish, eng avvalo, hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy himoya, soliq va raqamlashtirish sohalarida qonun ijodkorligi bo'yicha tajriba almashish uchun tegishli qo'mitalar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish muhimligi alohida e'tibor qaratildi.

Shundan so'ng "Karmelita" saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning tor doiradagi rasmiy delegatsiyalar ishtirokidagi muzokaralari bo'lib o'tdi.

O'zbekiston — Vengriya strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Davlatimiz rahbari Vengriya yetakchisiga Budapesht shahrida O'zbekiston delegatsiyasiga ko'rsatilayotgan samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirdi.

Amaliy hamkorlik barcha yo'nalishlarda izchil rivojlanib borayotgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Parlamentlar, hukumatlar, idora va hududlar darajasida samarali aloqalar yo'lga qo'yilgan. BMT, Turkiy davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro tuzilmalar doirasida yaqin hamkorlik qilinmoqda.

O'zaro savdo hajmi ortmoqda, iqtisodiyotning turli tarmoqlarida yetakchi korxonalarining hamkorligi kuchaymoqda.

Tovar ayirboshlash hajmini, shu jumladan, import o'rini bosish va "GSP+" maqomi hisobiga birinchi bosqichda 500 million yevroga yetkazish muhimligi qayd etildi.

Shu maqsadda laboratoriyalar Yevropa Ittifoqi talablariga muvofiq akkreditatsiyadan o'tkaziladi, tovarlarni oldindan sertifikatlash dasturi va eksport qiluvchi kompaniyalarga ko'maklashish bo'yicha qo'shma platforma ishga tushirildi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda qo'shma investitsiya loyihalari portfeli 500 million dollarni tashkil etadi. Bu galgi tashrif uchun yana 1,5 milliard yevrolik yangi loyihalar tayyorlangan.

Vengriyaning "OTP" banki O'zbekiston moliya bozoriga chiqqani Vengriya va Yevropa

biznesi uchun kuchli rag'bat bo'lgani ta'kidlandi. Bank bilan moliyalashtirish vositalarini kengaytirish bo'yicha kelishuvga erishildi. Avtokreditlashni rivojlantirish uchun qo'shma kompaniya tashkil etish va biznesni qo'llab-quvvatlash dasturini ishga tushirish shular jumlasidan. Sirdaryo viloyatida parrandachilik klasterini tashkil etish ham faol bosqichda.

Ertalab ishbiarmon doiralari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, avtomobil yo'llari va logistika markazlarini qurish, kommunal tarmoqlarni rivojlantirish, tayyor to'qimachilik mahsulotlari, qurilish materiallari, kimyoviy tovarlar, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish, raqamli texnologiyalar, baliqchilik kabi sohalarida yangi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

Bunday ishlab chiqarishlarni O'zbekistonda joylashtirish uchun Vengriyaning "Inpark" operatori boshqaruvida Yevropa kompaniyalari uchun maxsus sanoat zonasi tashkil etilayotgani ta'kidlandi.

Umuman, joriy yil iyul oyida Budapesht shahrida bo'lib o'tadigan Hukumatlararo komissiyaning navbatdagi yig'ilishida Investitsiyaviy sheriklik dasturini tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi.

Shuningdek, yetakchilar huzurida qabul qilingan hukumatlararo va idoralararo qator hujjatlar, jumladan, Ekstraditsiya to'g'risidagi shartnoma, Iqlim o'zgarishi sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim, tabiiy ofatlarni boshqarish, ilm-fan va innovatsiyalar, tinch atom sohasida hamkorlik to'g'risidagi idoralararo kelishuvlar almashildi.

O'tgan yil oktyabr oyida Qo'qon shahrida o'tgan birinchi Hududlar forumining samarali natijalari mamnuniyat bilan qayd

etildi. Hududlararo aloqalarni rag'batlantirish maqsadida Vengriyada ikkinchi forumga puxta tayyorgarlik ko'rish yuzasidan kelishuvga erishildi.

Ishbiarmonlik, turizm va madaniy almashinuvlarni faollashtirish maqsadida ikki mamlakat o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni rivojlantirish masalalari ham ko'rib chiqildi.

Madaniy-gumanitar sohadagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'tgan yilning oktyabr oyida Lakitelek shahrida buyuk shoir Alisher Navoiy byusti ochildi. Joriy yilning yanvar oyida Budapeshtda O'zbek kinosi kunlari o'tkazildi.

Kelgusi yilni "O'zbekiston va Vengriya madaniyati yili" deb e'lon qilish taklifi bildirildi. Vengriya davlat opera teatri sahnasida "Lazgi" baletini sahnalashtirish va Budapeshtdagi Etnografiya muzeyida o'zbek madaniyati ko'rgazmasini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilmoqda.

Ta'lim almashinuvi bo'yicha "Stipendium Hungaricum" dasturi doirasidagi hamkorlik davom ettiriladi. Shuningdek, ikki mamlakatda tan olinadigan diplomlar berish tizimini joriy etish va mamlakatimizda Vengriya oliy ta'lim muassasalarining filiallarini tashkil etish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

Shu ma'noda, joriy yilda Toshkent shahrida O'zbekiston va Vengriya rektorlarining uchinchi forumini o'tkazish taklif qilindi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashdilar. Terrorizm, ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanmasi, odam savdosi va xavfsizlikka tahdid solayotgan boshqa zamonaviy xatarlarga qarshi kurashish borasidagi hamkorlikni davom ettirish muhim ekanini ta'kidlandi.

Erishilgan kelishuvlar ijrosi ustidan nazorat o'rnatish maqsadida mutasaddi vazirliklarga qo'shma "Yo'l xaritasi"ni tayyorlash topshirildi.

Uchrashuv yakunida Prezident Shavkat Mirziyoyev Bosh vazir Viktor Orbanni javob tashrifi bilan O'zbekistonga kelishni taklif etdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

### Aks sado

## XALQLARIMIZNING TARIXIY ILDIZLARI MUSHTARAK

Vengriya O'zbekistonning Markaziy Yevropadagi eng muhim sheriklaridan biri hisoblanadi. U iqtisodiy jihatdan ancha jadal rivojlantirayotgan agrar-sanoat mamlakatidir. O'zbek va venger xalqlarini mushtarak tarixiy ildizlar, yaqin hamkorlik rishtalari bog'lab keladi.

Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga borgan ikki yurt o'rtasida o'zaro hurmat darajasi yuqori ekanidan dalolat. O'zbekiston ham, Vengriya ham do'stona sheriklikni kengaytirishdan manfaatdor ekanini alohida e'tirof etish kerak.

Tashrif doirasidagi muzokaralar jarayonida turli yo'nalishlarda, xususan, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, moliyaviy-texnik va madaniy-gumanitar sohalaridagi munosabatlarni rivojlantirish istiqbollari keng muhokama qilindi.

Tomonlar ikki mamlakat bozorlariga mahsulotlar yetkazib berishni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini kuchaytirish, oliy ta'lim, sport, farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, chorvachilik, baliqchilik, kartoshkachilik va boshqa sohalarida aniq loyihalarni amalga oshirishga kelishib oldilar.

E'tiborga molik jihati, O'zbekiston — Vengriya ko'p qirrali hamkorlik dasturlariga kiritiladigan mazkur kelishuvlar ijrosini ta'minlash uchun mas'ul alohida loyiha menejerlari birlashtirilib, har bir bosqichni amalga oshirishni nazorat qilish mexanizmi joriy etildi.

## BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI DAVRI

Shu kunlarda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Vengriyaga amalga oshirayotgan rasmiy tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim siyosiy voqea sifatida tarixga kirmoqda. Tashrif nafaqat siyosiy-iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, balki madaniy-gumanitar hamkorlikni yanada rivojlantirish imkoniyatini ham yaratadi, desak, yangilashmaymiz.

Qayd etish kerakki, Markaziy Yevropada joylashgan Vengriya davlati 93 ming kvadrat kilometr maydonga ega bo'lib, poytaxti — Budapesht shahri nafaqat mamlakatning, balki butun Yevropaning madaniy va siyosiy markazlaridan biri sanaladi.

O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda jadal sur'atlarda rivojlanib, strategik hamkorlik darajasiga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, sog'liqni saqlash, ta'lim, qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, "yashil" energetika kabi yo'nalishlarda bir qator loyihalar ro'yobga chiqarilayapti.

O'zbekiston yoshlari uchun Vengriyada ajratiladigan ta'lim grantlari soni ortib borayotgani, ilmiy hamkorlikning mustahkamlanayotgani ikki xalq o'rtasidagi madaniy aloqalarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

O'zbekiston bu boradagi sa'y-harakatlarini xalqaro maydonda ham taqdim etmoqda. Vena, Bryussel va Budapesht kabi markazlarda yurtimizda amalga oshirilayotgan ekologiya, ta'lim, innovatsiya yo'nalishlaridagi islohotlar qiziqishlarga sabab bo'lmoqda.

### Vengriya OAV:

## O'ZBEKISTON TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING DINAMIK YETAKCHISI SIFATIDA NAMOYON BO'LDI

Vengriya yetakchi ommaviy axborot vositalari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Budapesht shahriga tashrifi arafasida O'zbekistonda kechayotgan islohotlar va mamlakatimizning Turkiy davlatlar tashkilotidagi ishtirokini keng yoritdi.

### Dunyo nigohi

Jumladan, "Hungarian Conservative" axborot-tahliliy nashrida "O'zbekistonning Turkiy davlatlar tashkilotidagi yetakchiligi: Prezident Shavkat Mirziyoyevning qarashlari" sarlavhali maqola e'lon qilindi. Nashrda O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida mintaqaviy hamkorlikni, iqtisodiy integratsiyani va turkiy tili mamlakatlar o'rtasida madaniy birlikni mustahkamlash uchun Markaziy

Osiyodagi strategik joylashuvidan foydalangan holda asosiy ishtirokchiga aylangan qayd etilgan. "Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekistonda TDT kun tartibini belgilab beruvchi va uning xalqaro maydondagi ta'sirini kuchaytiruvchi qator chuqur islohotlar boshlandi. Bu sa'y-harakatlar O'zbekistonning mintaqaviy xavfsizlik, barqaror rivojlanish va turkiy davlatlar o'rtasida umumiy farovonlik tarafdori ekanini ko'rsatadi", deb yozilgan materialda.

Senat qo'mitalarida

O'RGANISH YAKUNLARI SARHISOBI

Avval xabar qilganimizdek, Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi maxsus iqtisodiy zonalar samaradorligini o'rgangan edi. Kuni kecha o'rganish yakunlari muhokamasiga bag'ishlangan majlis o'tkazildi.



Unda senatorlar, xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining doimiy komissiyalari a'zolari, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, mutasaddi davlat idoralari, mahalliy hokimliklar mas'ul rahbarlari, shuningdek, ekspertlar hamda ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdi.

Parlament nazorati doirasida Andijon, Jizzax, Namangan, Qashqadaryo, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida tashkil etilgan maxsus iqtisodiy zonalar (MIZ) faoliyati samaradorligini ko'tarish va ularga xorijiy investitsiyalar

jalb qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar o'rganilgan.

Natijalariga ko'ra MIZ faoliyatini huquqiy jihatdan ta'minlash, xorijiy hamda mahalliy investitsiyalarni jalb etish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va doimiy ish o'rinarini yaratish borasida maqsadli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, 2020-yilda qabul qilingan "Maxsus iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi Qonun bilan MIZni tashkil etish va ularning faoliyat ko'rsatishiga doir huquqiy munosabatlar hamda tartib-taomillar takomillashtirilib, ma'muriy funksiyalarni nomarkazlashtirish, MIZ direksiyalarining vakolatlarini kengaytirish orqali ularning faoliyatini boshqarish mexanizmi soddalashtirildi.

O'rganilgan hududlarda, jumladan, Andijon viloyatidagi "Andijon-farm", "Mashinasozlik va elektrotexnika", Jizzax

viloyatidagi "Zomin-farm" va "Jizzax", Namangan viloyatidagi "Kosonsoy-farm" va "Namangan", Sirdaryo viloyatidagi "Sirdaryo-farm" va "Sirdaryo", Surxondaryo viloyatidagi "Termiz" hamda Toshkent viloyatidagi "Angren", "Bo'stonliq-farm" va "Parkent-farm" MIZda 28,3 trln. so'mlik 195 ta loyihani amalga oshirish hisobiga 30 mingdan ziyod doimiy ish o'rinarini yaratilgan.

Shuningdek, MIZ ishtirokchilari tomonidan 2024-yilda 27 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, eksport hajmi qariyb 253 mln. AQSH dollarini tashkil etgan.

Yig'ilishda senatorlar tomonidan MIZda investitsiya loyihalarini tatbiq qilishda ayrim kamchilik va muammolar mavjudligi ham ko'rsatib o'tildi.

Xususan, MIZ faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, jumladan, MIZni xususiy boshqaruvga berish, eksportga ixtisoslashtirish, yer maydonlarini auksionga chiqarish tartibini yanada soddalashtirish bo'yicha tavsiyalar berildi.

Majlis yakuni bo'yicha qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

EKILGANI EMAS, KO'KARGANI HISOB

Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo'jaligi masalalari va ekologiya qo'mitasi ishchi guruhi mamlakatimizning turli hududlarida bo'lib, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar holatini o'rgangan borasida xabar bergan edi.

Kecha mazkur qo'mita majlisida Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi mutasaddilarining "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida hududlarni ko'kalamzorlashtirish, daraxtlar ekish va parvarishlash, "yashil belbog'lar" barpo etish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi axborot eshittildi.

Ta'kidlanganidek, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida joriy yil bahorgi mavsumda 136 mln. tup daraxt va buta ko'chati ekilgan.

Bundan tashqari, davlat o'rmon fondi yerlarida 126 ming gektar maydonda o'rmonzorlar barpo etish va qayta tiklash tadbirlari amalga oshirilgan. Orol dengizining qirig'ida tubi va Orolobo'y mintaqasida 124,5 ming gektar maydonda yashil qoplamalar yaratilib, 1,5 ming gektarda o'rmonlashtirish ishlari tashkil qilingan.

O'rmon xo'jaliklari tomonidan yashil hududlari yetarli bo'lmagan 1024 ta mahallaga 808 ming tup, Ekologiya jamg'armasi hisobidan maktab va maktabgacha ta'lim tashkilotlariga 409 ming tup, sog'liqni saqlash muassasalariga 493 ming tup ko'chat yetkazib berilgan.

Yig'ilishda "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishda kamchiliklarga ham yo'l qo'yilganligi senatorlar tomonidan ta'kidlandi. Jumladan, bahor mavsumida ekilgan qariyb 14 ming tup ko'chatning sug'orish tizimi tashkil etilmagan. Ayrim hollarda hududlarning tuproq-iqlim sharoitidan kelib chiqib daraxt va butalarning mos turlari tanlanmasdan ekilgan.

Ba'zi vazirlik, idora va tarmoqlarda daraxt ekish tadbirlariga yetarli darajada e'tibor qaratilmagani qayd etildi. Ekilgan ko'chatlarni parvarishlash, sug'orish, payhon qilinishining oldini olish ishlari ham talab darajasida bajarilmagan. Hokimlik, vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan avvalgi mavsumlarda ekilgan, tabiiy va boshqa omillar hisobiga qurib qolgan daraxtlarni xatlovdan o'tkazish, ular o'rni yangi

ko'chatlarni ekish amaliyotiga e'tibor qaratilmagani a'chinarlidir.

Qurilish materiallari, energetika va metallurgiya sohasidagi sanoat korxonalarining har biri 5 gektardan maydonda "yashil belbog'lar" barpo etishga ba'zi hududlarda beparvarlik qilingan. Masalan, Jizzax, Farg'ona, Qashqadaryo, Toshkent va Namangan viloyatlari hamda Toshkent shahrida sanoat korxonalarida shunday manzarani kuzatish mumkin.

Shuningdek, atrof-muhitga ta'sir xavfi bo'yicha I va II toifadagi 1 306 ta sanoat korxonasi 419 tasida ko'chat ekish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan.

Muhokama davomida kamchiliklarni bartaraf qilish yuzasidan mas'ullarga qator taklif va tavsiyalar berildi. Xususan, ekilgan ko'chatlar haqidagi ma'lumotlarning "Yashilmakon.eco" elektron platformasiga o'z vaqtida va haqqoniy kiritilishini ta'minlash, kuzgi mavsumda har bir hududning iqlimi, tuproq sharoitlaridan kelib chiqqan holda daraxt turi va ekish joylarini belgilash lozimligi ta'kidlandi.

Yirik sanoat korxonalarini atrofi va ularga tutash hududlarda hamda chiqindi poligonlari atroflarida "yashil belbog'lar" barpo etishga alohida e'tibor qaratish lozimligi aytiladi.

Qo'mita majlisida muhim ekologik sanalardan biri bo'lgan - Xalqaro biologik xilmaxillik kunining mazmun-mohiyati xususida ham atroflicha ma'lumot berildi.

Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarining agrar, suv xo'jaligi va ekologiya masalalari bo'yicha doimiy komissiyalari a'zolari uchun "Yashil makon" umummilliy loyihasini amalga oshirishda deputatlik va jamoatchilik nazoratining muhim jihatlari xususida seminar tashkil etildi.

Majlis yakunida ko'rilgan masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

YURT RAVNAQI ASOSI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi O'zLiDeP fraksiyasining navbatdagi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Prezidentimiz raisligida shu yil 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar muhokamasiga yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining ahamiyati haqida so'z yuritildi.

Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim sohasini isloh qilish va uni zamonaviy talablarga moslashtirish, yoshlarning sifati bilim olishi uchun zarur sharoitlar yaratish, tizimning moddiy-texnika bazasini mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, oxirgi yetti yilda maktabgacha va maktab ta'limi uchun mablag' 7 karraga oshirilib, bu yil 60 trln. so'm ajratildi.

Fraksiya a'zolari ushbu yig'ilishning ahamiyati haqida to'xtalar ekan, mazkur sohani rivojlantirish, uni yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha belgilangan muhim vazifalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'qituvchi va tarbiyachilarning nufuzini yuksaltirish, yosh avlodning zamonaviy bilim, ko'nikmalarni egallashiga xizmat qilishini qayd etdi.

Deputatlar O'zLiDeP Saylovoldi dasturida ham maktabgacha ta'limga bo'lgan ehtiyojni to'liq qondirishni kafolatlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va umumiy o'rta ta'lim muassasalarini pedagog xodimlarining

o'rtacha ish haqini 2 barobar oshirish ustuvor vazifa sifatida o'rin olganligini, shundan kelib chiqib, partiya va uning parlamentdagi fraksiyasi qo'yilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda faol ishtirok etishini ta'kidlashdi.

Mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch - bu ilm-fan, ta'lim va tarbiya ekanligi isbot talab etmas haqiqatdir, - dedi O'zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Haitov. - Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslarning hayotga tatbiqi deputatlar zimmasiga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Biz ushbu yo'nalishdagi islohotlar samaradorligini oshirish, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirib borishga alohida e'tibor qaratamiz.

Yig'ilishda tuman va shaharlarda yer solig'i hamda ijara to'lovlari uchun oshiruvchi va kamaytiruvchi koeffitsiyentlarni belgilash tartibi bo'yicha mahalliy Kengash deputatlari bilan o'tkazilgan seminar natijalari ham ko'rib chiqildi.

Yig'ilishda muhokamadagi masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilindi.

VATANPARVAR YOSHLARNI TARBİYALASH – USTUVOR MAQSAD

Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida Prezidentimiz raisligida maktab ta'limi tizimi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishining mazmun-mohiyati diqqat markazida bo'ldi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar natijasi maktabgacha ta'lim tizimida ko'zga yaqqol tashlanadi. Bundan yetti-sakkiz yil oldin bog'cha qamrovi atigi 10 - 12 foiz edi. So'nggi yetti yilda ushbu yo'nalishda olib borilgan qat'iy va samarali islohotlar natijasida bugun bo' ko'rsatkich 78 foizga yetdi. Hozirgi vaqtda mamlakatda 7 mingta davlat va 31 mingdan ziyod xususiy bog'chalar faoliyat yuritmoqda.

Fraksiya a'zolari bog'cha tarbiyalanuvchilariga hayotiy ko'nikmalar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini singdira oladigan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydigan pedagoglar zarurligidan kelib chiqib, oliy ma'lumotli tarbiyachilar tayyorlashni ko'paytirish, buning uchun ish haqini oshirib, tarbiyachilikni jozibador kasbga

aylantirish takliflarini ilgari surgan edi. Bugun bog'cha tarbiyachilari oylik maoshi 65 foizga ko'tarilib, maktab o'qituvchilarinikiga tenglashdi. Yangi o'quv yilidan bog'cha mudiralarining ish haqi 7 - 10 million so'mdan oshadi. Lekin bog'chalardagi sifat hamon talab darajasida emas.

Videoselektor yig'ilishida davlat rahbari aynan ushbu masalaga ham to'xtalib, qamrov kengaygani, lekin sifat bo'yicha qiladigan ishlar ko'pligi, bog'chalar nafaqat tarbiya, balki bolada ta'lim olish uchun ilk ko'nikmalarni shakllantiradigan maskanga aylanishi kerakligini alohida ta'kidladi.

Tadbirda "Milliy tiklanish" DP uzoq yillardan buyon bolalar ma'naviyatiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi manbalardan himoya qilish, to'g'ri axborot berish, ularni

tarbiyalash, tafakkuriga ta'sir ko'rsatish uchun milliy kontent, animatsion filmlarni yaratish va ular orqali qadriyatlarimizni singdirish masalalariga alohida e'tibor qaratib kelayotgani urg'ulandi.

Davlatimiz rahbarining ushbu masala yuzasidan bildirgan fikr-mulohazalaridan, belgilab bergan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, ularning ijrosini ta'minlash, bunda faollik, tashabbuskorlik ko'rsatish zarurligi qayd etildi.

Albatta, maqsadlarimiz ezu - yoshlarimizni zamonaviy bilimlarni to'la o'zlashtirgan, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, - dedi fraksiya rahbari Alisher Qodirov.

Yig'ilishda fraksiya a'zolari Jahongir Shirinov, Umida Rahmonova, Abduhakim Eshboev, Vasila Fayziyeva, Shahnoza Joldasova va Jahongir Mamajonov so'zga chiqib, videoselektorda ko'tarilgan masalalar bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Korrupsiyaviy omillarning oldini olish: NAZORAT, TAHLIL VA NATIJA

Shu yil 5-mart kuni o'tkazilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida davlatimiz rahbari korrupsiyaga qarshi kurashishda parlament, milliy va hududiy kengashlar, fuqarolik jamiyati institutlarining roli oshirilishini ta'kidlagan edi.

Bildirilgan takliflardan kelib chiqib, joriy yilning aprel oyida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasida sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganildi.

Kecha Qonunchilik palatasining Korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qo'mitasida Sog'liqni saqlash vazirligining "Tibbiyot sohasida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida"gi axboroti eshittildi.

Sog'liqni saqlash tizimida bu borada muayyan ishlar amalga oshirilgani ta'kidlandi. Shunday bo'lsa-da, hali o'z yechimini kutayotgan ayrim masalalar borligi ham qayd etildi. Xususan, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi faoliyati yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Ya'ni bugungi kunda vazirlik tizimida kompleks nazorat vazifasi yuklatilgan xodimlarning yetarli texnologik resurslar bilan ta'minlanmagani, tizimda korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo'lgan lavozimlar tavsifi, uning darajasi hamda



ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilmagani, "sirli mijoz", "reyd" kabi tadbirlarning amalga oshirilmagani natijasida korrupsiyaviy jinoyatlar yuz berishi quyi tizimda maishiy korrupsiyaning avj olishiga sabab bo'lmoqda.

Eshittuvda raqamlashtirish orqali korrupsiyaviy xavf-xatirlarni minimallashtirishga yetarlicha e'tibor qaratilmagani, jumladan, bugungi kunda vazirlik tizimidagi o'zaro integratsiyalanishi lozim bo'lgan 53 ta axborot tizimidan aksariyati integratsiya qilinmagani e'tirozga sabab bo'ldi.

Qayd etilganidek, sog'liqni saqlash tizimida aholining noroziligiga sabab bo'layotgan masalalardan biri - ishga qabul qilishning shaffof emasligi.

Qonunchilik palatasi deputatlari tomonidan Toshkent, Qashqadaryo, Andijon, Farg'ona, Jizzax, Namangan, Sirdaryo viloyatlarida sog'liqni saqlash sohasida ishga olish masalasi o'rganilganda tanlov bosqichlari, jarayon aniq reglamentlashtirib berilmaganligi natijasida ko'plab qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yilayotgani aniqlangan.

O'rta tibbiyot xodimlarini ishga qabul qilish tartibi vazirlikning buyrug'iga asosan amalga oshiriladi. Biroq unda nomzodlar tanlovda ishtirok etishining ochiq va shaffof mexanizmlari yaratilmagani oqibatida bu jarayonda tamagirik holatlariga barham berilmayapti.

Jumladan, Kosonsoy, Piskent, Bog'dod, Kitob tumanlari, Chirchiq, Qarshi, Shahrisabz shaharlari tibbiyot birlashmalarida ishga qabul qilish o'rganilganda o'rta tibbiyot xodimlarini faqat tanlov asosida ishga olish belgilangan bo'lsa-da, amalda ayrim holatlarda hatto tanlovsiiz olinayotgani ma'lum bo'ldi.

Savol-javoblarga boy bo'lgan eshituvda deputatlar tomonidan ayrim tibbiyot muassasalarida order berishda navbatga rioya qilmaski, aholiga bepul dori vositalarini yetkazib berishdagi

suiiste'molchilik, jarrohlik amaliyotini o'tkazishda fuqarolardan mablag' so'rash holatlari ko'payib borayotgani qayd etilib, ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar berildi.

O'rganish jarayonida ko'pgina sog'liqni saqlash muassasalarida amaldagi byudjet intizimi va davlat xaridlari qonunchiligini buzish holatlari, soxta tenderlar, ularni "aylanib o'tish tajribalari" mavjudligi aniqlanib, bunday holatlarning oldini olish bo'yicha mas'ullarga aniq vazifalar qo'yildi.

Qayd etilganidek, 2024-yil davomida vazirlik va uning quyi tizimlarida korrupsiyaga oid 514 ta jinoyat ro'yxatiga olingan. Ulardan 166 tasi o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan tanlov-torj qilish, 119 tasi firibgarlik, 79 tasi pora berish, 101 tasi mansab soxtakorligi, 13 tasi pora olish, 24 tasi mansab vakolati suiiste'moli, 9 tasi tovlamachilik jinoyatlarini tashkili etgan.

Eshituv yakunida Sog'liqni saqlash vazirligiga korrupsiyaga qarshi kurashish borasida jamoatchilik va aholi bilan doimiy qayta aloqa qilish tizimini yo'lga qo'yish, "komplyans nazorat" bo'linmalarini faoliyatini hamda korrupsiyaviy holatlarga sharoit yaratib berayotgan idoraviy hujjatlarini qayta ko'rib chiqish, aybdor shaxslarning javobgarligi masalasini hal etish bo'yicha takliflar berildi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

TRANSPORT VAZIRLIGI AXBOROTI ESHITILDI

Shu yil 24-25-aprel kunlari Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasi tomonidan tashuvchilar va yo'lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratish, yo'l infratuzilmasini yaxshilash, shaharlardagi hamda hududlararo tashuvlar samaradorligini oshirish masalasi Farg'ona viloyati misolida nazorat-tahlil tartibida o'rganilgan edi.

O'rganish natijalaridan kelib chiqib, Tadbirkorlik, raqobatni rivojlantirish va sanoat masalalari qo'mitasida Transport vazirligining "Tashuvchilar va yo'lovchilar uchun qulay sharoitlar yaratish" harakati uchun qulay sharoitlar yaratish choralarini: yo'l infratuzilmasini yaxshilash va shaharlarda hamda hududlararo tashuvlar samaradorligini oshirish to'g'risida"gi axboroti eshittildi.

Keyingi yillarda aholiga avtotransport xizmati ko'rsatishni yaxshilash, jamoat transporti yo'nalishlari tarmog'ini kengaytirish, harakat tarkibini zamonaviy, ekologik toza avtotransport vositalari bilan ta'minlash bo'yicha Prezidentimiz tomonidan qator Farmon va qarorlar imzolab, sohada keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorga muvofiq

avtobusda yo'lovchi tashish xizmatlarini ko'rsatuvchilar bilan hisob-kitoblar "bosib o'tilgan yo'l" va "sifat" mezonlari asosida amalga oshirilishi yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, jamoat transportidan foydalanishda yo'lovchilar uchun qulay tariflar, jumladan, imtiyozli va bepul, cheklangan va cheklanmagan, rag'batlantiruvchi tariflar belgilangani hamda avtomatlashtirilgan to'lov tizimi joriy etilgani aholiga qulayliklar yaratish bilan birga jamoat transportidan foydalanish jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda jamoat transporti muntazam ravishda zamonaviy avtobus va elektrobuslar hisobiga yangilanib borilmoqda. Tadbirkorlarga qo'shimcha qulaylik yaratish maqsadida shahar jamoat transportiga mo'ljallangan avtobuslar to'bi

olishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etildi.

Axborotda keltirilganidek, aholi va xorijiy sayyohlarga shaharlarda qatnovlarda xizmat ko'rsatish uchun 98 ta yo'nalish mavjud bo'lib, ulardan 51 tasi Toshkent shahrini hududlar bilan bog'laydi. Mazkur yo'nalishlarda haftasiga 868 ta avtobus qatnovi amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, O'zbekistondan Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonga 36 ta xalqaro avtobus yo'nalishi faoliyatini yo'lga qo'yilgan. 2025-yilning yanvar - aprel oylari davomida 225 ming nafar yo'lovchiga xizmat ko'rsatilgan.

Eshittuvda deputatlar tomonidan jamoat transporti tizimi, ayniqsa, viloyatlar markazlari, tumanlararo, qishloqlardan markazgacha bo'lgan yo'nalishlarda muammolar mavjudligi ta'kidlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar berildi.

Muhokama qilingan masalalar yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar belgilab olindi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqildi.

"Xalq so'zi".

MEMORANDUM IMZOLANDI

Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi hamda Jamoat xavfsizligi universiteti hamkorligida navbatdagi tadbir tashkil etildi.

Tadbir

Unda yangi O'zbekistonning tinchlik va osoyishtaligini ta'minlashga bel bog'lagan yetuk mutaxassislarni tayyorlashda Jamoat xavfsizligi universiteti ham muhim o'rin tutishi, jamiyat hayotidagi har qanday qonunbuzarlikka qarshi qat'iy kurashish bugungi kunda umummilliy vazifaga aylangani ta'kidlandi.

Tadbirda yoshlarni huquqbuzarlik va korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga nisbatan toqatsiz ruhdan tarbiyalash, ularning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish, qonunbuzarliklarga qarshi kurashishda o'z vaqtida va samarali choralar ko'rishga o'rgatish masalalari muhokama qilindi.

Ta'lim jarayonlarining mazmunan boyitilishi, amaliyot bilan uyg'unligi va huquqiy ongini oshirishdagi dolzarb yo'nalishlar haqida fikr almashildi.

"Xalq so'zi".

Forum

DUNYONING FAOL AYOLLARI JAM BO'LDI

Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi Orziqul Qozixonova Rossiya Federatsiyasining Tatariston poytaxti Qozon shahrida bo'lib o'tgan XVI "Rossiya - Islom dunyosi: KazanForum" xalqaro iqtisodiy forumi doirasida "Ayollar nigohi" sessiyasida ishtirok etdi.

Sessiyada yigirmata mamlakatdan kelgan 300 dan ziyod vakillar, xususan, davlat organlari, biznes, fan va jamoatchilikning yetakchi ayollari qatnashdi.

Tadbirda ayollar yetakchiligi, ularning iqtisodiy jarayonlardagi ishtiroki, tadbirkorlikni rivojlantirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama markazida bo'ldi.

Turli mamlakatlardan kelgan ishtirokchilar o'z tajribalari bilan o'rtoqlashib, xalqaro sheriklikni yanada rivojlantirish imkoniyatlari haqida fikr almashdi.

Sessiya ishida mamlakatimiz parlamenti vakili so'zga chiqib, O'zbekistonda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ular salohiyatini ro'yobga chiqarish, startap hamda innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, biznes sohalardagi faolligini oshirishga qaratilgan davlat siyosati haqida ma'lumot berdi. Ayollarning iqtisodiy faolligi va jamiyatdagi o'rni mustahkamlashda O'zbekiston tajribasi ishtirokchilar e'tiboriga havola qilindi.

Mazkur forum doirasida, shuningdek, senator qator uchrashuvlar o'tkazdi. Ularda ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash, ilg'or tajribalarni o'zaro almashish masalalari muhokama etildi.

"Xalq so'zi".

## MUNOSABATLARIMIZ O'ZARO ISHONCHGA ASOSLANGAN

Ayni paytda Prezidentimiz Vengriya Bosh vazirining taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo'lib turibdi. Tashrif mamlakatlarimiz o'rtasidagi amaliy hamkorlik va strategik sheriklikni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Boisi O'zbekiston va Vengriya ikki tomonlama hamkorlikni yanada kengaytirish uchun yuqori imkoniyat va salohiyatga ega mamlakatlar hisoblanadi.



## Fikr

Diplomatik aloqalar o'rnatilgan 1992-yildan buyon O'zbekiston va Vengriya munosabatlari sifat jihatdan rivojlanish bosqichiga ko'tarilib, manfaatli hamkorlikning yangi istiqbollari ochilmoqda, ikki

tomonlama hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Birgalikdagi intilish va amaliy ishlar natijasi o'laroq bu sheriklik yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Ikki mamlakat tashqi siyosat idoralari o'rtasidagi siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmi samarali ishlashi natijasida yuqori darajadagi tashriflar faollashdi. Keyingi

yillarda mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy va sarmoyaviy hamkorlik izchil o'sib boryapti. Buni o'zaro tovar ayirboshlash hajmining 3 barobarga oshganida ham ko'rish mumkin.

O'zbekistonning Vengriyaga eksporti asosini to'qimachilik, xizmatlar, oziq-ovqat, plastmassa va undan tayyorlangan mahsulotlar tashkil etadi. O'z navbatida, O'zbekiston Vengriyadan farmatsevtika, chorvachilik mahsulotlari, mexanik hamda elektr uskunalari va boshqa tovarlar import qiladi.

Bugungi kunda O'zbekistonda Vengriya kapitali ishtirokida tashkil etilgan 16 korxonada muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda. Ularning 10 tasi qo'shma korxonalaridir.

Aytish joizki, O'zbekiston va

Vengriya BMT, YEXHT, Turkiya davlatlar tashkiloti va boshqa xalqaro institutlar doirasida to'laonli hamkorlik qilmoqda. Mamlakatlarimizning global kun tartibidagi dolzarb masalalar bo'yicha nuqtai nazarlari yaqin va bir-biriga mos keladi.

Davlatimiz rahbarining Vengriyaga tashrifi ikki mamlakat o'rtasida boshlangan hamkorlikni izchil davom ettirish, strategik sheriklikni yanada mustahkamlash, umuman olganda, o'zaro munosabatlarni sifat va mazmun jihatdan boyitgan holda, yangi imkoniyatlar eshiklarini ochadi.

**Komila KAROMOVA,**  
Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Qashqadaryo viloyati bo'limi rahbari,  
Oliy Majlis Senati a'zosi.

## XALQLARIMIZNING TARIXIY ILDIZLARI MUSHTARAK

Vengriya O'zbekistondagi biznes faoliyati ko'larini kengaytirishdan hamda mamlakatimiz iqtisodiyotining qator tarmoqlarida mavjud bo'lgan salmoqli sanoat salohiyatidan manfaatdor. Asosiysi, bugungi kunga qadar yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarish va kelajakda ularni uchinchi mamlakatlar bozorlariga eksport qilish maqsadida yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarishlarni yaratishga qaratilgan qo'shma investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishilganligini alohida qayd etish zarur.

Prezidentimizning ushbu mamlakatga tashrifi o'zbek - venger aloqalarini chuqurlashtirish va yuqori darajaga ko'tarish sari muhim qadam bo'ldi. Imzolangan ikki tomonlama hujjatlar hamda ilgari surilgan tashabbuslar mamlakatlarimiz o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy hamda parlamentararo aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

**Orziguil QOZIXONOVA,**  
Oliy Majlis Senatining Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi raisi.



## Vengriya OAV:

## O'ZBEKISTON TURKIY DAVLATLAR TASHKILOTINING DINAMIK YETAKCHISI SIFATIDA NAMOYON BO'LDI

Shuningdek, maqolada O'zbekiston 2022-yilda TDTga raislik qilganidan beri tashkilot maqsadlarini ilgari surishda markaziy rol o'ynaganini urg'ulandi. "Hungarian Conservative" portalida yozilishicha, 2022-yilda Samarqandda bo'lib o'tgan TDT sammiti muhim voqea bo'ldi, unda O'zbekiston Turkiyadan raislikni qabul qilib oldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev iqtisodiy integratsiya, infratuzilmani rivojlantirish va madaniy almashinuvga e'tibor qaratgan holda hamkorlikni mustahkamlash strategiyasini belgilab berdi.

"Prezident Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida O'zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotining dinamik yetakchisi sifatida namoyon bo'ldi. Iqtisodiy aloqalar, mintaqaviy va barqaror rivojlanishga qaratilgan tashabbuslar orqali O'zbekiston nafaqat turkiy davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlamoqda, balki jahon miqyosida ham munosib o'rin egallamoqda. Shavkat Mirziyoyev TDTni oldinga siljitishda davom etar ekan, O'zbekistonning ta'siri kuchayib, turkiy dunyoda farovonlik va birlikning yangi davrini boshlab berdi", deyiladi maqola xulosasida.

Vengriyadagi eng qadimgi va mashhur kundalik bosma nashrlardan

biri "Magyar Nemzet" gazetasida "Diplomatik yuksalish: Turk dunyosi Budapeshtga e'tibor qaratmoqda" sarlavhali maqola o'z o'quvchilari e'tiboriga taqdim qilindi. Maqolada shu yilning 20-21-may kunlari Budapeshtda Turkiy davlatlar tashkilotining norasmiy sammiti bo'lib o'tishi aytilgan. "Varkeret bozori majmuasida bo'lib o'tadigan sammitda Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston yetakchilari, shuningdek, TDT bosh kotibi ishtirok etadi, - deb ta'kidlangan materialda. - Ekspertlarning fikricha, TDT Markaziy Osiyo va Yevrosiyo mintaqasidagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning muhim ishtirokchisiga aylanib bormoqda".

Mazkur gazetada e'lon qilingan navbatdagi maqola Turkiy davlatlar tashkilotining mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishdagi o'rniga bag'ishlandi. "Turkiy davlatlar tashkiloti Markaziy Osiyo va Yevrosiyo iqtisodiy va iqtisodiy jarayonlarning tobora muhim ishtirokchisiga aylanib bormoqda. Mintaqaning rivojlanishi global nuqtai nazardan e'tiborga loyiq bo'lib, o'zaro hamkorlik va mushtarak madaniy ildizlar turkiy davlatlar bilan "Sharqqa ochilish" siyosati doirasidagi iqtisodiy aloqalar uchun ajoyib zamin yaratadi", deya Vengriya tashqi siyosat instituti katta ilmiy xodimi, professor Laslo

Vasha so'zlaridan iqtibos keltirilgan nashrda.

Shuningdek, Vengriyaning "Eurasia" tahliliy markazi rasmiy saytida "Vengriya va Turkiy davlatlar tashkilotining buguni va kelajagi" sarlavhali tahliliy maqola joylashtirildi. Unda Vengriya Bosh vaziri Viktor Orbanning taklifiga binoan TDTning Budapeshtdagi norasmiy sammitida Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdogan, Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqayev, Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov, Turkiy davlatlar tashkiloti bosh kotibi Kubanichbek Omuraliyev ishtirok etishi xabar qilingan.

Maqolada, shuningdek, Vengriya va O'zbekiston o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar so'nggi yetti yilda yangi bosqichga ko'tarilgan ta'kidlangan bo'ldi. Shu bilan birga, ikki davlat yetakchilarining tez-tez o'tkazilayotgan uchrashuvlari Vengriya - O'zbekiston iqtisodiy va diplomatik aloqalari jadal rivojlanib borayotganining yorqin

namunasidir. "2021-yil mart oyida Vengriya Bosh vaziri Viktor Orban rasmiy tashrif bilan O'zbekistonga bordi va u yerda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilindi. Toshkent uchrashuvi chog'ida Vengriya va O'zbekiston Bosh vazirlari ikki davlat o'rtasidagi strategik sheriklik to'g'risidagi qo'shma deklaratsiya va 2021 - 2023-yillarga mo'ljallangan



hamkorlik dasturini imzoladilar", deya qayd etilgan portaldagi.

Ushbu mamlakatning mashhur "Hello Magyar" onlayn nashrida esa "O'zbekiston va Vengriya: turizm hamkorligining o'sish nuqtalari" sarlavhali maqola e'lon qilindi. Unda O'zbekiston va Vengriya o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlik tobora jadal va sermahsul bo'lib borayotgani qayd etilgan.

"So'nggi yillarda ham biznes aloqalarini, ham madaniy almashinuvni qamrab oluvchi strategik sheriklik uchun mustahkam poydevor yaratildi. Bugun ishonch bilan

aytish mumkinki, mamlakatlarimiz muuloqotning yangi bosqichiga ko'tarildi, bunda turizm muhim, integratsion rol o'ynaydi", deyilgan nashrda.

Ta'kidlanishicha, Vengriya fuqarolarining O'zbekistonga qiziqishi ortib bormoqda. Ularni O'zbekistonning boy tarixiy va madaniy merosini zamonaviy



infratuzilma bilan uyg'unlashtirgan noyob sayyohlik yo'nalishlari o'ziga faol jalb qilmoqda. "Boshqa tomondan, Vengriya O'zbekiston turizmi uchun barqaror va ko'p qirrali bozor hisoblanadi. O'zbekiston fuqarolari Vengriyaga madaniy, sog'lomlashtirish va ishlabirmonlik turizmi mamlakat sifatida qiziqish bildirmoqda. Budapeshtning termal kurortlari, gastronomik yo'nalishlari va me'moriy merosi o'zbek sayyohida katta qiziqish uyg'otmoqda", deb yozgan muallif.

"Dunyo" AA.  
Budapesht

## BARQAROR RIVOJLANISHNING YANGI DAVRI

Davlatimiz rahbari B u d a - peshtga rasmiy tashrifi doirasida dastlab Vengriyaning yirik kompaniyasi va banklari rahbarlari bilan uchrashgani bejiz emas. Chunki bugungi kunda Vengriyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari jadal o'sib bormoqda.

Prezidentimiz uchrashuvdagi nutqida iqtisodiy sheriklikni kengaytirish maqsadida qator ustuvor yo'nalishlarni ko'rsatib o'tdi. Qo'shma loyihalarni birgalikda moliyalashtirish va tayyor mahsulotlarni uchinchi mamlakatlarning istiqbolli bozorlariga eksport qilishni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida urg'u berildi.

Shuningdek, Vengriya kompaniyalarining qo'shma loyihalarini amalga oshirishga qiziqishi yuksak baholandi. Ikki mamlakat ishbirmon doiralari o'rtasidagi mustahkam aloqalarni rivojlantirish uchun barcha sharoit yaratilishi ta'kidlandi.

Uchrashuv yakunida bir qator kelishuvlarga erishilganini alohida qayd etish joiz. Shubhasiz, bular transport va yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, logistika markazlari va kommunal tarmoqlarni barpo etish, qurilish materiallari, tayyor to'qimachilik, kimyo, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish kabi yo'nalishlarda yangi loyihalarni ro'yogga chiqarishga xizmat qiladi.

Ma'lumki, bugungi kunda ikki mamlakat parlamentlari delegatsiyalarining o'zaro tashriflari va uchrashuvlari muntazamlik kasb etib, faollashib bormoqda. Tashrif doirasida davlatimiz rahbarining Vengriya Milliy majlisi spikeri Laslo Kyover bilan uchrashuvida bu haqda alohida to'xtalib o'tildi. Ayni vaqtda imzolangan bitimlarni amalga oshirishga ko'maklashish, do'stlik guruhlari ishini faollashtirish, eng avvalo, hududlarni rivojlantirish, ijtimoiy himoya, soliq va raqamlashtirish sohalarida qonun ijodkorligi bo'yicha tajriba almashish uchun tegishli qo'mitalar o'rtasida aloqalarni yo'lga qo'yish muhimligiga e'tibor qaratildi.

O'zbekiston Prezidentining Vengriyaga rasmiy tashrifi va uning doirasida o'tkazilayotgan muzokaralar ikki tomonlama munosabatlar tarixidagi muhim siyosiy voqeadir. Bu tashrif strategik sheriklikni, xalqlarimiz o'rtasida do'stlik rishtalarini yanada mustahkamlaydi.

**Gulchehra TOJIBOYEVA,**  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

## KELAJAK LIDERLARINI KASHF ETGAN MAYDON

O'zbekiston ta'lim tizimida har kuni yangi sahifa, yangi ilg'or harakatlar. Ana shunday muhim tashabbuslardan biri - "TasIMO - 2025" - Toshkent xalqaro matematika olimpiadasining final bosqichi 18 - 21-may kunlari poytaxtimizdagi Xalqaro Nordik universitetida yuqori saviyada tashkil etildi.

Bu olimpiada faqat raqamlar va formulalar bellashuvi emas, balki bilim, intellektual salohiyat, xalqaro do'stlik hamda madaniyat bayramiga aylandi. Unda Markaziy Osiyo davlatlari hamda Xitoy Xalq Respublikasi, Germaniya, Bolgariya, Mo'g'uliston, Gruziya, Birlashgan Arab Amirliklari va Rossiyadan saralangan iqtidorli o'quvchi-yoshlar, milliy terma jamoalar qatnashdi.

## Olimpiada

Besh yuz mingdan ko'p yigit-qizlar qatnashgan ilk onlayn bosqichdan boshlab, har bir o'quvchining finalga yetib kelishi - haqiqatan ham ilm, izlanish va zahmat samarasidir. 14 ta hududda o'tkazilgan ikkinchi oflayn bosqichda 2 ming 983 nafar ishtirokchidan 150 nafari saralandi va finalga yo'l oldi. Xorijdan esa 850 qatnashchidan 242 nafar iqtidorli yosh saralab olindi. Shu bilan birga, "TasIMO - 2024" g'oliblari va xalqaro olimpiada tajribasiga ega bo'lgan milliy terma jamoalar to'g'ridan-to'g'ri finalda ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldi.



sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur", dedi Prezident.

Davlatimiz rahbari tomonidan izchil olib borilayotgan ana shunday islohotlar, chaqiriqlarga javoban yurtimizda ta'lim, ilm-fan va madaniyat orqali iqtidorli, ijodkor va ma'naviy barkamol yoshlar - haqiqiy vatanparvarlarni tarbiyalash barchamizning asosiy maqsadimizga aylandi.

Xususan, Xalqaro Nordik universiteti, "IDC" ta'lim markazi tashabbusi bilan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirliklari, O'zbekiston Bolalar ombudsmanni, Jahon banki, YUNICEF xalqaro tashkiloti, Rovani universiteti (AQSH) va Kareliya AFU (Finlyandiya), "Xalq so'zi" va "Narodnoye slovo" gazetalari hamda "UzReport TV" hamkorligida tashkil etilgan "TasIMO - 2025" olimpiadasi yosh avlodga ishonch va rag'bat, jamiyatimiz kelajagi uchun eng ezuq tashabbuslardan biridir.

18-may kuni Xalqaro Nordik universitetida bo'lib o'tgan xalqaro ahamiyatga molik bo'lgan ilm bayrami - "TasIMO - 2025" xalqaro olimpiadasi final bosqichining ochilish marosimi - yoshlarning ilmga bo'lgan ishtiyoqi va kelajakka ishonchini namoyon etdi. Ilm-fanga sadoqat, xalqaro do'stlik va teng imkoniyatlar ramzi bo'lgan tarixiy tadbir barchaning xotirasida muhurlandi. "TasIMO" - bu shunchaki olimpiada emas, balki yosh avlodga ishonch, vatanparvarlik ruhini singdiruvchi, yurtimizda eng iqtidorlilar "oltin fondi"ni boyitish va ularni global bilim maydoniga olib chiquvchi maktabdir.

Final bosqichida qatnashgan barcha yoshlarga "TasIMO" ramzi aks etgan maxsus forma, esdalik sovg'alari taqdim etildi. Yoshlarni ilmga yo'naltiruvchi, buyuk avlodni tarbiyalashga hissa qo'shuvchi mazkur bilimlar bellashuviga rasman start berilar ekan, barcha ishtirokchilarga sinflar kesimida teng sharoitlarda, nazoratchilar kuzatuv ostida shaffof bellashish imkoniyati yaratildi.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi tashabbuslarning xalqaro miqyosda namoyon bo'layotganining yaqqol

dalillaridan biri, bu - TasIMO kabi olimpiadalardir, - dedi Mo'g'ulistonning O'zbekistondagi elchixonasi birinchi kotibi Tamir Sugarsuren. - Bunday xalqaro platformalar yoshlarga o'z salohiyatini namoyon qilish, bilim va tajriba almashish imkonini beradi. Ayniqsa, mintaqaviy hamkorlik va ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashda ham bu kabi tadbirlarning ahamiyati beqiyos.

Elchixonamiz nomidan ushbu bilimlar



anjumanida qatnashayotganlarni samimiy tabriklayman. Sizlar - bizning kelajagimiz, ilm-fan va innovatsion taraqqiyotning asosiy kuchisiz. Har bir ishtirokchi o'z yurtining iftixoridir. Sizlarga kuch-g'ayrat, qat'iyat va kelgusida yuksak marralarni zabt etishingizda omad tilayman.

Ta'kidlash joizki, ushbu nufuzli olimpiada natijalari nafaqat mahalliy, balki xalqaro nufuzli hakamlar hay'ati tomonidan baholangan. Olimpiada savol va topshiriqlari Sherzod Jumayev, Sardor G'afforov, Zarif Ibragimov, Abdushukur Ahadov hamda Ivan Kai Chan (Malayziya), Marek Murin (Slovakiya), David Hruska (Chexiya), Nafid Safayev (Eron), Vlad Matei (Ruminiya) va Ik Jay (AQSH) kabi xalqaro hakamlar tomonidan ishlab chiqilgan hamda tanlangani ham olimpiadaning IMO kabi nufuzli bellashuvlar darajasida

o'tkazilishini ta'minlamoqda.

Jumladan, o'nta davlatdan kelib tushgan 40 ta savoldan 6 tasi tanlab olindi. Savollarning xalqaro darajada ekanligi nufuzli olimpiadalarga tajriba to'plagan bilimdonlar va ularning yaqinlari tomonidan ham e'tirof etilmog'unda.

Germaniyaning Myunxen shahridan O'zbekistonga tashrif buyurdik. Ikki farzandim "TasIMO" xalqaro olimpiadasida 4-sinifli kesimida bellashuvda ishtirok

etmoqda va birinchi o'rin uchun kurashmoqda. Savollar birmuncha murakkab, xalqaro nufuzli olimpiadalar darajasida tuzilganiga qaramay, farzandlarim bor bilimni qo'llab, to'g'ri yechim topishga intildi, - deydi TasIMO final bosqichida qatnashgan ikki iqtidor egasi Daria va Alexanderning onasi. - Ushbu nufuzli olimpiadada nafaqat yutuq, balki ishtirok etishning o'zi ham katta tajriba

etmoqda va birinchi o'rin uchun kurashmoqda. Savollar birmuncha murakkab, xalqaro nufuzli olimpiadalar darajasida tuzilganiga qaramay, farzandlarim bor bilimni qo'llab, to'g'ri yechim topishga intildi, - deydi TasIMO final bosqichida qatnashgan ikki iqtidor egasi Daria va Alexanderning onasi. - Ushbu nufuzli olimpiadada nafaqat yutuq, balki ishtirok etishning o'zi ham katta tajriba

etmoqda va birinchi o'rin uchun kurashmoqda. Savollar birmuncha murakkab, xalqaro nufuzli olimpiadalar darajasida tuzilganiga qaramay, farzandlarim bor bilimni qo'llab, to'g'ri yechim topishga intildi, - deydi TasIMO final bosqichida qatnashgan ikki iqtidor egasi Daria va Alexanderning onasi. - Ushbu nufuzli olimpiadada nafaqat yutuq, balki ishtirok etishning o'zi ham katta tajriba

Intellektual bellashuv - mahorat va halollik, kelajak liderlarini kashf etish maydoni bo'ldi. Bugun, ya'ni 21-may kuni "TasIMO - 2025" g'oliblarini taqdirlash va mukofotlashga bag'ishlangan tantanalii tadbir tashkil qilindi. Bu ilm va yoshlar rivoji uchun yaratilayotgan keng imkoniyatlar bayramidir.

va ilhom manbai bo'lyapti.

Olimpiada davomida nafaqat fan sinovlari, balki madaniy va ijtimoiy tadbirlar ham uyushtirildi. Bu esa qatnashchilar uchun nafaqat yangi bilimlar, balki xalqaro do'stlar, unutilmas xotiralari va shaxsiy o'sish uchun ajoyib imkoniyatlar yaratdi.

"TasIMO" doirasida tashkil etilgan dasturga ko'ra bilimdonlar unutilmas taassurotlarga boy madaniy-ma'naviy tadbirlarda ham faollik ko'rsatishdi. O'zbek milliy ma'naviy merosini zamonaviy texnologiyalar vositasida aks ettirgan "Jadidlar. Turkistonga maktublar" multimedia ko'rgazmasiga, Adilbar xiyoboni va "Magic City"ga tashriflar uyushtirildi. Shuningdek, Toshkent politexnika muzeyi va ilg'or texnologiyalar muhiti yaratgan Innovatsion o'quv va ishlab chiqarish texnopark, "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasiga sayohatlar ham qiziqarli kechdi.

Ayniqsa, Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumanida joylashgan "Green Hills Resort" maskanida olimpiada doirasida tashkil etilgan "Matematika festivali" bilimdonlarga unutilmas lahzalar tuha qildi. Tabiatda horq va tog' havosi, qiziqarli interfaol o'yinlar, animatorlar bilan shoular zavqli kechdi.

"TasIMO - 2025" mamlakatimizda ta'lim, ilm-fan va innovatsiyalarga qaratilayotgan e'tiborning amaldagi yorqin namunasidir. Ikkinchi bor o'tkazilayotgan Toshkent xalqaro matematika olimpiadasi O'zbekiston kelajagini shakllantiradigan yoshlar uchun ulkan imkoniyatlar yaratish va ularni jahonga tanitishga, dunyo yoshlari orasida sog'lom raqobat va o'sishga yo'l ochmoqda.

**Sherzod MUSTAFOQULOV,**  
Xalqaro Nordik universiteti rektori,  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.  
Ozodjon ZOYIROV,  
IDC ta'lim markazi asoschisi.

# MAMLAKAT BO'YLAB YANGILIKLAR, VOQEALAR, TAFSILOTLAR

## O'QITUVCHI MEHNATI – O'QUVCHI MUVAFFAQIYATI

Poytaxtimizdagi Adiblar xiyobonida qoraqalpog' elining suyuqli shoiri Ibroym Yusupov haykali ham o'r in olgan. Nukus shahrida Ibroym Yusupov nomidagi ijod maktabining qurilishi ham aynan Prezidentimiz tashrifida ilgari surilgan tashabbusdir. Hozir mazkur ijod maktabida bilimli, iqtidorli o'quvchilar ta'lim olmoqda.

### Ertamiz umidi

Maktabda o'quvchilarning chuqur bilim olishi uchun barcha sharoit mavjud. Jumladan, yosh tarjimonlar, veb-dizayn, kompyuter grafikasi, tasviriy va raqamli san'at, audiovizual asarlarni yaratish va qayta ishlash, aktyorlik mahorati kabi to'garaklar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ijod maktabi o'quvchilari turli ko'rik-tanlovlarda sovrinli o'r inlarni egallamoqda.



5 nafari ingliz tilidan "S1", "B2", bir nafari o'quvchi yapon tilidan xalqaro darajadagi sertifikatlarini olishga muvaffaq bo'ldi.

Albatta, o'qituvchining mehnati o'quvchilarning muvaffaqiyatida ko'rinadi. Mazkur ijod maktabidan fanlar olimpiadasida Qutlibika Bazarbayeva, Aruna Tashkentbayeva, Gulnisa Jumabayeva, Doniyor

Muratbayev faol ishtirok etib, faxrli 1, 2, 3-o'r inlarni qo'lga kiritdi. Fanlar olimpiadasining IV respublika bosqichida qoraqalpog' tili va adabiyoti fanidan 11-sinf o'quvchisi Gozsal Reypnazarova 2-o'rinni, 11-sinf o'quvchisi Gulnara Qidirbayeva faxrli 3-o'rinni egalladi. Maktab o'z nomiga yarasha yosh ijodkorlarni yetishtirib chiqarishda o'ziga xos tajribaga ega. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan "Ijod bog'idan guldasta" nomli to'plamda 12 nafar o'quvchining kitobi chop etildi. Yaqinda agentlik va O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi bilan hamkorlikdagi "Mening birinchi kitobim" loyihasida 9-sinf o'quvchisi Nurdana Bisenbayevaning to'plami ham nashrdan chiqdi. U ijod maktablari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan Ijodiy olimpiadada faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Ibroym Yusupovning ijodi qoraqalpog' she'riyat, adabiyotida azim chinorga qiyoslanadi. Nukusning markaziy ko'chalarining birida



joylashgan mazkur ijod maktabi oldida shoir Ibroym Yusupovning haykali o'rnatilgan. Atoliq shoir Qoraqalpog'iston Respublikasi madhiyasi muallifidir. Adib ixtosmandlari uning she'rlari va dostonlari, hikoya va pyesalari, dolzarb publitsistikasi bilan yaqindan tanish. U O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq shoiri, O'zbekiston Qahramoni, Qoraqalpog'iston Respublikasi san'at arbobi, Berdaq nomidagi davlat mukofoti sovrindori hisoblanadi.

Ayni paytda mazkur ijod maktabining yoshlari ham olamshumul kashfiyotlari, noyob ijodlari bilan o'z yurtini dunyoga tanitmoqda. Ibroym Yusupov ijodining ma'naviy boyligi qanchalik yuksakligini O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov o'z bitiklarida ham ifodalagan:

**Kimdir qayta nasib etsa gap dunyo, Bundoq yashardim deb nadomat etdi. Kimqadir bu armon kerakdir, Ammo Ibroym Yusupov bir kelib ketdi...**

G'ayrat O'AJONOV ("Xalq so'zi").

### Yashayotgan qadriyatlar

"Buxoro" davlat muzey-qo'riqxonasining amirlik davriga oid kolleksiyasidan xalqimizning aqlu zakovati, yaratuvchanlik mahoratidan darak beruvchi ko'plab eksponatlar o'r in olgan. Muzey-qo'riqxonada fondining bosh muhofigi Feruza Sharipovaning bildirishicha, ular orasida vaqt ta'sirida ta'mirlab holga kelganlari ham uchraydi. Shunday pallada o'z ishini ustasi sanalgan restavratorlar ko'makka kelmoqda. Dilmurod Xolov boshliq mutaxassislar yaqinda XIX asrga taalluqligi aytilayotgan saroy amirlari belbog'ini ta'mirladi. E'tiborlisi, kumush va tilla suvi yuritilgan bu jihozni asl holiga keltirishga ijodiy yondashildi. Baxmal matoni tikish dastgohda emas, qo'l kuchi bilan bajarildi.

## RESTAVRATORLARNING O'ZIGA XOS TEXNOLOGIYASI

– Bu bir necha jarayondan iborat bo'ldi, – deydi mato restavratsiyasi bo'yicha yaxshigina tajriba to'plagan Soriya Nosirova. – Bunda bizga, avvalo, mikroskop orqali qilingan tahlillar asqadi. Maxsus ko'zoynakdan foydalandik. Tanda va arqoqni tashlagan holda o'rnidan ko'chgan, yoyilgan baxmalni igna yordamida tikladik. Endi uni ko'rgazmaga namoyish etgani qo'yish mumkin.



Sirasini aytganda, artefaktlar restavratsiyasi tarixni chuqur bilishdan tashqari, sabru toqat, did, qunt, mahoratni talab qiladi. Bu hunar etagidan tuzoqqa har kim ham jazm etavermaydi. Shu nuqtayi nazardan, muzey-qo'riqxonada "Loqaq bitta eksponatni saqlab qolsak ham, o'zimizni baxtli hisoblaymiz" deya faoliyat ko'rsatayotgan restavratorlar borligi naqadar yaxshi. Biroq

Dilmurod Xolovning ta'kidlashicha, baxmal matoni qo'l kuchi bilan tikkan holda eksponatni qayta tiklash borasidagi tajriba o'zini oqladi. Endi bu usuldan foydalanib, yirikroq artefaktlarni, deylik, qadimiy to'n'larni ham restavratsiya qilish mumkin.

Darvoqe, buxorolik restavratorlar yaratgan o'ziga xos texnologiya xorijiy ekspertlarni, jumladan, Rossiya davlat ermitaj mutaxassislarini ham qiziqtirib qo'yd. Chunki ermitajda Markaziy Osiyo, jumladan, Buxoro bilan ham bog'liq ko'plab eksponatlar saqlanadi.

Istam IBROHIMOV ("Xalq so'zi").

## GULXAYRI EKIB HAM KATTA BIZNES QILISH MUMKIN

Qamashi tumanida faoliyat yuritayotgan "BBU – Azamat" xususiy korxonasi bundan 6-7 yil avval tasarrufidagi kichik maydonlarda dorivor o'simliklarni yetishtirib, uni Yevropa davlatlariga eksport qilish faoliyatini boshlagan edi.

### Imkoniyat



Tabiyyi sharoitda, issiq quyosh taftida yetishtirilgan dorivor giyohning sifati xorijlik ishlab chiqaruvchilarga ham ma'qul tushdi. Buyurtmalar hajmi ortib boshladi. Bu esa tadbirkorni faoliyatini yanada kengaytirib, mahsulot yetishtirish hajmini oshirishga undadi. Bu borada eng maqbul yo'l hududdagi tomorqachilarni hamkorlikka chorlash edi. Korxonada rahbari Azamat Choriyev shunday qildi. Avvaliga mahalladagi, keyinroq tuman va viloyatning boshqa hududlaridagi yuzlab xonadonlarni bu ishga jalb etdi.

Ta'kidlash joizki, bugungi kunda qishloq va mahallalarda yashaydigan aksariyat oilalar tomorqa yer maydoniga ega. Ammo hamma ham undan samarali foydalanishni uddalay olmaydi. Bunga ko'p hollarda mahallalarning bir mahsulotni yetishtirish borasida yetarli tajribaga ega emasligi, qolaversa, pishib, yetilgan hosilni kimga va qay tartibda realizatsiya qilishda aniq rejasi yo'qligi sabab bo'lishi sir emas.

Shu ma'noda aytganda, "BBU – Azamat" xususiy korxonasining hamkor tomorqachilarga dorivor gullarning urug'ini yetkazib berib, ularni parvarishlash bo'yicha doimiy tarzda yo'l-yo'riq ko'rsatib borishi, hosilni shartnoma asosida to'liq o'zi xarid qilib, mahsulotni eksportga yo'naltirishi tomorqachilar uchun ham ayni muddao bo'ldi. Natijada korxonada bilan hamkorlikda mahsulot yetishtirish istagidagi xonadonlar soni tobora ortib borayotir.

– Ayni paytda viloyatimizdagi 1200 dan ziyod xonadonlar egalari biz bilan hamkorlikda o'z tomorqasida dorivor gulxayri o'simligini yetishtirmoqda, – deydi korxonada rahbari o'rinbosari Do'stmurod Choriyev. – 2026-yil mavsumidan bo'tako'z gulini ham aholi tomorqasida yetishtirish rejalashtirilgan. Ayni vaqtda maxsus plantatsiyalarda yana yigirmaga yaqin turdagi dorivor gullar yetishtirilmoqda. Qamashi va Shahrisabz tumanining tog' hududlarida tajriba sifatida yangi navlar parvarishiga ham kirishilgan.

Ahamiyatli jihati, tadbirkorning birgina muvaffaqiyatli loyihasi ortidan bugun hududdagi 30 nafar kishining doimiy hamda yuzdan ortig'ining mavsumiy ishlar bilan bandligi ta'minlangan. Minglab xonadonlar sohiblari o'z tomorqasidan samarali foydalanib, yaxshi daromad topmoqda.

Jahongir BOYMURODOV ("Xalq so'zi").

## QUSHLAR BILAN TILLASHAYOTGAN MARG'ILONLIKLAR

Farg'onada tadbirkorlik, uddaburonlikda marg'ilonliklarning oldiga tushadigani yo'q. Shu bois viloyatda hozilumuz ohangda aytildigan "marg'iloncha manzirat" degan ibora ancha urfga kirgan. Boisi muomalasi shirin, yo'qdan bor qilish qobiliyati kuchli ko'hna kent ahli har qaysi sohada birinchi bo'lishga intiladi.

### Izlanish

Tadbirkorlikda davr taqozosi tufayli endilikda marg'ilonliklarning, hatto qush tilini ham topayotgani e'tiborga loyiq. Gap shundaki, bugungi kunda Marg'ilon shahridagi "Tuyagum" MFY ahli qush boqib, ushbu sohani mahalla drayveriga aylantirish orqali tilga tushdi.

Ayni paytda mahalladagi aksariyat xonadonlarda noyob va nodir sayroq qushlar parvarishlanadi. Bu shunchaki ishqibozlik emas, mo'may daromad olish va oila farovonligini ta'minlash omilidir.

Ne'matjon Rustamov mo'jazzina hovlisida 12 turga mansub bo'lgan 100 ga yaqin qushlarni boqmoqda. Xonadon sohibining aytishicha, u boqayotgan ba'zi qushlarning



narxi 1,5 ming dollargacha baholanadi. Misol uchun, "Amadinka" qushi 13 kunda 6-7 tagacha bolalaydi. Bir juft qush 150 ming so'mdan sotiladi. Jo'ja olish mavsumi erta ko'klamdan noyabr oyiga qadar davom etadi va ushbu oila mavsumda 1000 juftdan ortiq noyob qushlarni sotadi.

– Noyob qushlar parvarishi va savdosi mahalla drayveriga aylanib ulgurdi, – deydi "Tuyagum" MFY raisi Shuhratjon Xoligov. – Ayni paytda 100 dan ziyod xonadon sohiblari ushbu yumush bilan mashg'ul. Ammo mahallamizda qushlar savdosi uchun bozor yo'q. Aksariyat qushlar poytaxt bozorlaridagi ikkilamchi mijozlar orqali xaridorlarga yetkazib berilmoqda.

Shu maqsadda mahallaning o'zida qushlar savdosi uchun ixtisoslashtirilgan maxsus do'kon tashkil etish, doimiy ravishda qushlar ko'rgazmasini yo'lga qo'yish harakatidamiz. Natijada savdo bilan birga, kerakli ozuqa, darmondorlar, giyiyena vositalari hamda kerakli anjomlar ta'minoti ham yo'lga qo'yiladi.

Botir MADIYOROV ("Xalq so'zi").

## OYOQ OSTIDAGI NE'MAT

Har yili may oyida yurtimizda tut g'arq pishadi. Qora, qizil, oq, rang-barang va marvariddek tutlarki, biri-biridan totli va serhosil. Ta'bir joiz bo'lsa, tutni oddiy daraxt emas, xalq daraxti deyish mumkin. Negaki, soyasi ham, mevasi-yu bargi, og'ochi-yu shoxi ham insonga foyda keltiradi. U tez o'sadi, har qanday tuproqqa molashadi. Shu sabab hamma joyga, ko'p hollarda dala va ko'cha chetlariga ekiladi.

### Tabarruk zamin

Ma'lumotlarga ko'ra bir tup tut daraxti yiliga o'rtacha 30 – 50 kg. meva beradi. Afsuski, shu hosilning bir qismini qushlar yeyishi hisobga olinmaganda deyarli hammasi yerga to'kiladi. Natijada to'kilgan tutlarni odamlar, mashinalar, chorva mollari bosib o'tadi. Chunki yo'l, yo'lak chetidagi tut borki, hosili yoqosti bo'ladi. Lekin yo'ldan xoli joylarda to'kilgan tutlarni uvol bo'ldi, deyish noto'g'ri. Boisi ular qurt-qumursqa va boshqa jonivor hasharotlarga tayyor yemish. Tabiatda hech narsa bejiz yaratilmagan. Tut ham ekotizim va ozuqa zanjirining uzviy, shuningdek, faol ishtirokchisi hisoblanadi.

Ammo shu o'rinda savol tug'iladi: tut mevasini ham daromad keltiruvchi mahsulotga aylantirish ko'lmaydimi? Eh-he, har yili tut pishig'ida qancha meva isrof bo'lyapti? Axir tut mevasidan xonadonlarda azaldan qoqi, murabbo, sharbat tayyorlangan-ku? Ayni xalqona texnologiyalar, sanoat asosida qayta ishlash yo'lga qo'yilsa ko'lmaydimi?

Albatta, buning uchun tutlarni tanlab ekishga

ham e'tibor bermoq kerak. Ularni joylashtirishda ham hosilning uvol bo'lmasligi hisobga olinmog'i lozim. Bunda shu kunlarda Toshkent va Guliston bozorlarida sotilayotgan Sayxunobod tutlari andoza qilib olinsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. E'tirof etish kerakki, Sayxunobod tumanidagi ko'plab oilalar bog'laridagi balx tuti kabi noyob navli daraxtlarning mevasini yerga tushirmay terib olib, bozorlarga chiqaradi. Tutdan qo'shimcha daromad topadi. Mazkur tuman atrof javonibda haqli ravishda "Tut markazi" deb ta'riflanadi.

Tutning foydasi katta. Uning bargi to'qimachilik sanoatida milliy brendimizga aylangan atlas va adrasimip ipagi paydo bo'lishining bosh omilidir. Yog'ochidan turli duradgorlik buyumlari yasaladi, soyasi – oromijon. Faqat yuqorida keltirilganidek, kelgusida yurtimizda tut hosili nobud bo'lishi – ushbu shirin-sharbat ne'matning ko'chalarga to'kiilib uvol bo'lmasligiga e'tibor qaratsak, maqsadga muvofiq bo'lardi.

Sevara RASULOVA, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi.

## MAHALLANING YORUG' KUNLARI

"Xalq so'zi" gazetasining shu yil 28-fevradagi 42-sonida "Mahalla idorasi qayerda?" sarlavhasi ostida maqola e'lon qilingandi. Bu oliyhimmat tadbirkorlar nazariga tushdi va O'rta Chirchiq tumanidagi Yoriq mahallasida ezgu ishlar boshlanib, idora binosi yangi qiyofa kasb etdi.

### Tanqiddan so'ng...

Shu o'rinda ta'kidlash joizki, ushbu mahallada joylashgan 518 ta xonadondagi 627 ta oilada 2 ming 276 kishi istiqomat qiladi. Demak, asosan, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanib, tomorqalarini yashnatib qo'yan aholiga xizmat ko'rsatish uchun "mahalla yettilligi"ga qulay sharoit zarur.

Mahalla idorasiga kirishdan avval yoriqlik "yettillik" faoliyatiga qisman to'xtalsak. Axir qulay sharoit bo'lmasa-

da, rejadagidek ishlash hammaning ham qo'lidan kelavermaydi. O'tgan vaqtda mahalladagi ehtiyojmand oilalar vakillari va ishsiz yoshlarning 103 nafariga 30 – 50 soxtidan 30 yil muddatga foydalanish uchun yer berildi. Pirovardida, aholi bandligi hamda doimiy daromad ta'minlandi. Ular bugungi kunda dalalarga loyiya, jo'xori, kartoshka kabi qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan mashg'ul.

"Mahalla yettilligi" faoliyat ko'rsatayotgan bino jamoa xo'jaligining sobiq idorasi edi. U 1983-yilda qurilgan.



Oradan o'tgan 20 – 30 yil davomida qarovsiz yotgan bino mahalla idorasi tasarrufiga o'tkazilgach, bu yer ta'mirlandi, rang berildi. Biroq yillar yetkazgan ohorni qayta tiklash uchun yetarlicha mablag' va hafsala kerak edi.

Oliyhimmat tadbirkor Abdurashid Razzoqov homiyligida mahalla idorasi binosining oltita xonasi, ikkita katta dahlizi qayta ta'mirlandi. Jumladan,

binoning tom qismi uchun 300 dona shifer yordamida yog'in-sochin kunlardagi masala hal etildi. Yangi eshik va romlar olinib, "mahalla yettilligi"ning har biri uchun alohida xonalar zamonaviy jihozlar bilan to'liq ta'minlandi.

– Ikki qavatli shunday katta binoni ta'mirlab bergan tadbirkorning bu xayriy ishi ko'pchilik uchun ibrat

namunasi bo'ldi. Shinam, zamonaviy va yorug' xonalar faoliyatimizda ham yorug'liklarni yetaklab kelsa, shunga imkon bersa, ne ajab! Buning uchun tadbirkor mahalladoshimidan minnatdormiz, – deydi "Yoriq" mahalla fuqarolar yig'ini raisi Rustam Hoshimov.

– Mahallamizda Nuriddin Ismatillayev, Nuriddin Bozorov, Jamoliddin Ismatillayev, Dilmurod Ne'matillayev, Jasur Mirzaaliyev singari tadbirkorlar homiyligida ko'plab xayriy ishlar amalga oshirib kelinadi, – deydi mahalla yoshlar yetakchisi Oybek Ochilov. – Aslida, Yoriq mahallasidagi yorug' kunlar ancha avval boshlangandi. Endilikda ezgulikning bu nurlaridan mahalla idorasi ham munavvar bo'ldi.

Otabek ISROILOV ("Xalq so'zi").

2025-yil yakuniga qadar Samarqand shahrida "Ipak yo'lida turizm" tematik ofisi tashkil etiladi.

**Xalq so'zi**  
**Narodnoe slovo**

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; ko'tibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismatilov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:**  
**100066,**  
**Toshkent shahri,**  
**Islom Karimov N. o'chasi, 55-uy.**  
Navbatchi muharrir N. Kostanov.  
Musahhih Sh. Mashrabboev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 02.10 Topshirildi — 02.30 **1 2 3 4 5 6**